

DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARX ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada donni qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi va tannarx aniqlashning nazariy asoslari yoritilgan. Xususan, Don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha turkumlash taklif qilingan.

Kalit so'zlar: xarajat, tannarx, xarajatlar klassifikatsiyasi, xarajatlarni turkumlanishi, xarajat moddalari.

Аннотация. В данной статье освещены теоретические основы учета затрат и определения себестоимости на предприятиях по переработке зерна. В частности, предложена классификация затрат по калькуляционным статьям на предприятиях по производству зерновой продукции.

Ключевые слова: затраты, себестоимость, классификация затрат, группировка затрат, статьи затрат.

Annotation. This article examines the theoretical foundations of cost accounting and cost determination at grain processing enterprises. In particular, a classification of costs by calculation (costing) items is proposed for grain product enterprises.

Keywords: costs, cost price, cost classification, cost grouping, cost items.

Kirish. Hozirgi vaqtda butun dunyoda agrar sohani rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, don va undan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, don mahsulotlari hajmini oshirish, uni yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish uchun qulay agrobiznes muhitini yaratish, donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda sohada ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish va ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajada kamaytirish, xarajatlar hisobi va tannarx aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Nazariy jihatdan iqtisodiy manbalar va adabiyotlarda "xarajatlar" va "tannarx" tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bildirilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim S.S.Barteneva "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi – bu sintezlangan ko'rsatkichdir. Shuning uchun tannarxning barcha jihatlariga mos keladigan yagona to'g'ri ta'rifni topish juda qiyin" [2]deb izohlagan.

N.V.Mamushkinaning fikricha “Xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo‘yicha taqsimlash butun korxona tannarxini shakllantirishda qo‘llaniladi va xarajatlarning beshta asosiy guruhini o‘z ichiga oladi: moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, ijtimoiy ehtiyojlar uchun badallar, asosiy vositalarning amortizatsiyasi va boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi guruhlarning har biri iqtisodiy mazmuni bo‘yicha bir xil bo‘lgan, o‘z qismlariga bo‘linib bo‘lmaydigan va qayerda ishlab chiqarilganligi va ishlab chiqarish maqsadi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar hisoblangan xarajatlarni birlashtiradi. Xarajatlarning bunday tasnifi xarajatlar tarkibini aniqlash imkonini beradi” [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlar A.K.Ibragimov., I.Ochilov, I.Qo‘ziev, N.Rizaevlarning fikricha «xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo‘lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko‘ra, o‘sha davrning o‘zida daromad keltirishi kerak».

Iqtisodchi olim K.B.Urazov esa, “xarajat deganda, hisobot davrida korxona aktivlarining kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishi tushuniladi” deb ta’kidlagan.

R.D.Dusmuratov., B.Y.Menglikulovlar esa “Tannarx – xo‘jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichidir” [3] deb izohlaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid ilmiy, o‘quv-uslubiy manbalar va manbalarni sharhlash kabi nazariy metodlar qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, don mahsulotlari korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish jarayonini ma’lum bir resurslar bilan ta’minlanmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Demak, ishlab chiqarishni resurslar bilan ta’minlash korxonaning iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu boisdan, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun qancha mablag‘ sarflanishini bilishi zarur.

Xarajatlar va tannarx xo‘jalik faoliyatining foyda hajmini, samaradorligini va rentabelligini belgilovchi eng muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Demak, ko‘pchilik korxonalar xarajatlarni maksimal darajada optimallashtirish orqali iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga harakat qiladi.

Xarajatlarni tartibga solish korxona rahbariyatining asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Xarajatlarni rejalashtirish, doimiy ravishda hisobga olish va tahlil qilmasdan, korxonaning moliyaviy natijalarini baholash hamda kapitalni rejalashtirilgan holda qayta ishlab chiqarishga sarflashning imkoni bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, xarajatlarni boshqarishning asosiy maqsadi ularni kamaytirish emas, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tejash va ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida maksimal samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Korxonaning xo‘jalik faoliyati moddiy, mehnat va energiya resurslarini moddiy ifodada qo‘llash orqali amalga oshiriladi, ularning sarf hajmi esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari va hajmi, ishlab chiqilgan texnologiyalar, qo‘llanilayotgan vositalar, ishlab chiqarish jarayoni tashkil etilish sxemasi, korxonadagi boshqaruv darajasi, shuningdek, qabul qilingan ijtimoiy siyosat xarakteriga asoslanadi .

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida» 54-son qarori qabul qilingan.

Mazkur qarorda «mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan sarflangan xarajatlar kiritiladi»[1] deb belgilangan. Ya’ni, bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlar tannarxga qo‘shiladi.

Bizning fikrimizcha, “Xarajatlar – bu har qanday resursdan foydalanishni bildiruvchi tushuncha hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida sarflangan tovar va xizmatlarning pul ko‘rinishidagi qiymat hisoblanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy asoslangan xarajatlar klassifikatsiyasi – mahsulot tannarxini hisoblash, xarajatlarni boshqarish va buxgalteriya hisobini oqilona tashkil qilishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xarajatlar klassifikatsiyasining ahamiyati – korxonalarda xarajatlarni to‘g‘ri boshqarish va ularni samarali tashkil etishga bog‘liq.

Ishlab chiqarish xarajatlarini klassifikatsiya qilish – ularni muayyan belgilariga ko‘ra bir xil guruhlariga ajratishdir.

Iqtisodchi olim M.B.Kalonovning fikricha korxona xarajatlarini quyidagicha turkumlash maqsadga muvofiq bo‘ladi (rasm).

Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning umumiy maqsadi foydani oshirish, xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarining bozordagi ulushni ko‘paytirish, mijozlarga xizmat sifatini ko‘tarish kabi bir qator ko‘rsatkichlardan iborat hisoblanadi.

Shu sababli, bu maqsadga erishish uchun mahsulot tannarxini kamaytirish zarur. Chunki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyatining pirovard natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi shakllanadi.


Mahsulot tannarxi – bu yakuniy tayyor mahsulotni yaratish va sotishning barcha bosqichlarida foydalanilgan resurslarning pul ko‘rinishidagi qiymati.

Nazariy manbalarga ko‘ra, tayyor mahsulot tannarxini shakllantiruvchi barcha xarajatlarni hisobga olish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadida amaliyotda ikki turdagi xarajatlar klassifikatsiyasi qo‘llaniladi:

1. Elementlar bo‘yicha klassifikatsiya,
2. Hisob moddalari bo‘yicha klassifikatsiya.

Elementlar bo'yicha guruhlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moddiy xarajatlar;
- mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;
- asosiy vositalarning amortizatsiyasi;
- boshqa (turli) xarajatlar.



1-rasm. M.B.Kalonov tomonidan korxona xarajatlarning turkumlanishi[4].

Shunga qaramay, elementlar bo'yicha guruhlash usulida xarajatlarning qaysi yo'nalish (asosiy faoliyat, yordamchi ishlab chiqarish va h.k.) bo'yicha va qayerda qo'llanilganini aniq oldindan belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun bu turdagi guruhlash orqali xarajatlarning samaradorligini chuqur tahlil qilish qiyin.

Eng muhim kamchilik shundaki, bu klassifikatsiya asosida aniq bir mahsulot turining birlik tannarxini aniqlab bo'lmaydi. Mahsulot turning bir birlik tannarxini aniqlash uchun esa kalkulyatsiya moddalari (hisob moddalari) bo'yicha xarajatlarni guruhlash zarur bo'ladi.

1-jadval.

Don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha turkumlanishi³¹

Xarajatlar moddalari	Xarajat moddalarining mazmuni
Xom-ashyo materiallar	Un mahsulotini ishlab chiqarishda foydalaniladigan bug'doy materiallari qiymati, Ishlatiladigan bug'doy, tn Bug'doy ulgurji sotish narxi (QQS siz)

³¹ Muallif ishlanmasi

Xarajatlar moddalari	Xarajat moddalarining mazmuni
Transport-tayyorlov xarajatlari	Bug'doyni elevatordan tegirmonga bo'lgan oraliqqa (avtotransport va teplovozda) tashish xizmatlari
Jami qo'shimcha mahsulotlar	Ishlab chiqarish jarayonida ayrilib chiqariladigan mahsulotlar (kepak,don chiqindisi) (kepak 22%,don chiqindisi3%)
Bug'doy narxi chiqindi ayrilgan hisobi bilan	Asosiy bug'doy narxidan, ayrilib chiqqan qo'shimcha mahsulotlar qiymati olib tashlangandan so'nggi bug'doy narxi
Tashish, saqlash va ishlab chiqarishdagi bug'doyning yo'qotilgan qiymati	Donni saqlash, quritish, tozalash, qayta joylashtirish va qayta ishlash jarayonida kamayish va yo'qotishlarni qoplash uchun moliyaviy zaxira xarajatlari
Bevosita xarajatlar (tegirmon)	Asosiy ishlab chiqarish jarayonida tegirmonda ishlatiladigan bevosita xarajatlar
Yoqilg'i	Ishlab chiqarishda sarflanadigan yoqilg'i-moylash materiallari (benzin, dizel yoqilg'isi, solidol, nigrol, mator moyi, moylash materiallari)
Ehtiyot qismlar	Ishlab chiqarishda tegirmonda foydalanishi ko'zda tutilgan har xil (Ремешлар podshipniklar, sito, kovsh, lenta) va boshqa ehtiyot qismlar
Boshqa materiallar	Vitamin, ip, emblema, qop va boshqalar
Moli yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan to'lovlar	Elektr energiya, gaz, suv va boshqalar
Oylik ish haqi xarajatlari	Asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqlari, Yo'llanma ishchilarga mavsumiy to'lanadigan ish haqlari xarajatlari
Ijtimoiy soliq	Ijtimoiy soliq, kasaba uyushmasiga to'lovlar, vaqtincha ishga yaroqsizligi bo'yicha to'lovlar va pensiya jamg'armasiga shaxsiy to'lovlar xarajatlari
Amortizatsiya	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari
Boshqa xarajatlar	Sertifikatlash, gazasiya, fumigasiya va boshqa xarajatlar
AUP xarajatlari	Mehnat haqi bo'yicha xarajatlar, boshqa ma'muriy xarajatlar
Sotish xarajatlari	Reklama va sotish xarajatlari, boshqa sotish xarajatlari (birja, broker va boshqalar)
Boshqa operatsion xarajatlar	Bank operatsiyalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar, xayriya yordam, davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar (mulk, yer, suv soliqlari va boshqalar)
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	Olingan bank kreditlarini to'lashdagi hisoblangan foizlar

Yuqoridagi xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha olimlarning fikr va yondashuvlarini e'tirof etgan holda adabiyotlar, normativ hujjatlar hamda tadqiqotlar olib borish natijasiga asoslanib don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha quyidagicha turkumlash tavsiya qilinadi (2-jadval).

Don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur turkumlashlar aynan don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarning aniq hisobini yuritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Donni qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi va tannarx aniqlashning nazariy asoslari mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv uslubiy asarlari tadqiq qilingan holda xarajatlar hisobi va tannarx aniqlashning nazariy asoslari va axborot manbalari ochiqlandi.

2. Don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha turkumlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevral 54-sonli "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-264422>.

2. Barteneva S.S. [Analysis of scientific knowledge about the cost category in the economic environment]. Наука и современность=Science and Modernity, 2010, no. 3-3, pp.72–76.

3. Dusmuratov R.D., B.Yu.Menglikulov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 392 b.

4. Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Dissertatsiya. –T.: 2019. 124 b.

5. Мамушкина Н.В. Учётно-аналитическое обеспечение аудита затрат на производство продукции животноводства: Специальность 08.00.12 – Бухгалтерский учёт, статистика. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – 24 с.